

# MOLIYAVIY SAVODXONLIK: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA

## AHOLI O'RTASIDA TARG'IBOTI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11405239>

**Abdullayeva Madinabonu Xasanbayevna**

*TDIU, "Moliya" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi.*

**Erkinjonov Diyorbek Maximudjon o'g'li,**

*TDIU, IM70-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Iqtisodiy integratsiyalashuvning muhim talablardan biri moliyaviy savodxonlik yuqori darajada bo'lishligidir. Fuqarolarning yuqori moliyaviy savodxonlikka ega bo'lishi davlatning rivojlanishiga, aholining turmush tarzining farovonlashishiga, iqtisodiy erkinliklarga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida mualliflar O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning holati va uning aholiga targ'ibot yo'naliishlarini ko'rsatib o'tishadi.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy savodxonlik, iqtisodiyot, iqtisodiy siyosat, tadbirkorlik, moliyaviy innovatsiyalar, soliq siyosati, korrupsiya, inson farovonligi va hayot sifati.

Moliyaviy savodxonlik bu – aholining o'z moliyaviy mablag'larini rejalashtirish, daromad va xarajatlarini tartibga solish, turli moliyaviy instrumentlardan foydalana olish borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalari yog'indisidir. Ya'nikim hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan, insoning moliya sohasidagi bilimlari yig'indisidir.

Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlanishi, aholi yashash sifatining o'sishi ko'p jihatdan fuqarolarning moliyaviy savodxonligiga bog'liq. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratadi.

Hozirgi rivojlangan davr va iqtisodiyot vaqtida har bir aholidan moliyaviy bilim, ko'nikmalar va yuqori moliyaviy savodxonlik darjasini talab qilinadi. Aholining moliyaviy bilim va ko'nikmalari holati, moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bilan birlgilikda aholining moddiy farovonligini o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik tizimini joriy etish va uning aholi o'rtasida keng tarqatish aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari uchun juda foydali hisoblanadi, chunki jamg'armalar va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni eng ijobjiy

holatga keltirish, o‘zini shaxsiy biznesini amalga oshirish uchun tijorat banklaridan kreditlarni olish aholining farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining moliyaviy savodxonligi shaxslarga o‘z daromadlari va jamg‘armalarini samarali boshqarishda muhim rolni bajaradi. Moliyaviy savodxonlik oilalarga uzoq muddatga mo’ljallangan oilaviy rejalarda o‘z xarajatlarini hisob-kitob bilan rejalahtirish, mablag’larni to‘g‘ri foydalanish va jamg‘arish, qarz va kreditlar olish bo‘yicha to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Yuqorida aytib o’tilgan iqtisodiy fikrlar daromad kam aholi sonining kamayishiga, ularni o‘z mablag’larini himoya qilish va yangilarini ko’paytirishga undaydi. Shunday qilib, moliyaviy savodxonlik aholiga foya keltirishi bilan birga butun moliya tizimi xizmatlarining iste’molchilari sonini kengaytirish va shaxsiy jamg‘armalarini ko’paytirish orqali bank, mikromoliyaviy tashkilotlar, sug‘urta sohalari, fond bozorini rivojlanishiga imkon yaratadi. Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha moliyaviy jihatdan savodxon shaxs quyidagi afzalliliklarga ega bo’ladi:

- daromad va xarajatlar borasida oqilona qarorlar qabul qila olish;
- o‘zining oilaviy budgetini to‘g‘ri boshqarish qobiliyatiga ega bo’lish;
- moliyaviy aktivlar va xarajatlarini samarali boshqarish ko‘nikmalariga ega bo’lish;
- o‘z moliyaviy majburiyatlarini bo‘yniga yuklatilgan muddatda bajarish;
- moliyaviy xizmatlardan keng foydalanish asosida shaxsiy jamg‘arma va investitsiyalarini amalga oshirishda qo’llaniladigan dastaklar sonini ortishi;
- turmush darajasidagi o‘zgarishlarga moslashish [2].

Tan olishimiz kerakki, O’zbekistonda aholining moliyaviy savodxonlik darjasи yuqori emas. Ammo, so’ngi vaqtlardagi moliyaviy va fiskal siyosatlarida aholining turmush tarzini o’rganib, ularni holatini tushunib amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi o’rtasidagi moliyaviy savodxonlik kundan-kunga yaxshilanib bormoqda.

Aholi uchun targ’ibot savodxonlik sifatining o’sishini va moliyaviy yangiliklarga pozitiv munosabatni ifodalaydi. Mamlakatning iqtisodiy yangilanishlari, yangi biznes imkoniyatlari, investitsiyalarning jalb qilinishi va

korxonalar uchun rivojlanish yo'lida aholi optimistik nazar bilan qarashadi. Soliq siyosati va korxonalar uchun qulay shartlar yaratilishi esa aholining ish bilan bog'liqlik darajasini oshirishga yordam beradi, bu esa ularning sotish qobiliyati, samarali savdoxonlik va ishslash imkoniyatlarini oshirib boradi [3].

Hozirgi kunga kelib moliya xizmatlari qiyin ko'rinish va tavsifga ega bo'lgan bir paytda, iste'molchilar yechish zarur bo'lgan masalalar paydo bo'la boshladi va bu masalalarni yechish uchun iste'molchida har doim ham yetaricha bilim va ko'nikmalar bo'lmaydi. Aksariyat hollarda bu jarayon aholida moliyaviy bilimlar yo'qligi, oilaviy byudjetni rejalashtirish bo'yicha yetaricha ma'lumotga ega emasligi va moliya xizmatlaridan to'laqonli va samarali foydalana olmaslik bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida hukumat, Markaziy bank va boshqa turli banklar qator samarali tadbirlar, dasturlar ishlab chiqarmoqdalar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.07.2019 yildagi PQ-4400-sonli qaroriga asosan, mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligrini oshirish chora-tadbirlari keng amalga oshirilib kelinmoqda. [1].

Shuningdek, bu maqsadni amalga oshirish uchun Markaziy bank huzurida "Moliyaviy savodxonlik va ommabopligrini oshirish departamenti" tashkil etildi va ularga quyidagi vazifalar berildi:

- aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish strategiyasini ishlab chiqish hamda uning doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish;

- bank tizimi strategik vazifalari hamda rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari asosida Markaziy bank va tijorat banklari xodimlarining kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishni ta'minlash.

Shu kabi ko'plab tadbirlar qatorida quyidagilar ham amalga oshirildi:

Markaziy bank "Butunjahon pul haftaligi" (Global Money Week 2024) doirasida "Pullaringizni himoya qiling. Kelajagingizni ta'minlang" mavzusida

yurtimiz bo'ylab videoroliklar tanlovini e'lon qildi va har bir inson qatnashishi uchun eshiklarni ochdi [4].

- “Hamkorbank” ATB tomonidan “Qishloq joylarda ayol-tadbirkorlarni moliyaviy savodxonlikka oshirish” loyihasi tashkil etildi va hududlarda tadbirlar uyushtirildi [5].
- “Hamkorbank” ATB tomonidan “Mening moliyaviy savodxonligim” qo'llanmasi tuzib chiqildi. Ushbu qo'llanma tadbirkorlik faoliyatini olib borish, tadbirkorning biznesini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni, soliq majburiyatlari, turli banklar bilan ishslash, tadbirkorlar uchun moliyaviy mahsulot va xizmatlar to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Shuningdek, mahalliy va xususiy banklar tomonidan aholining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida yurtimizning ko'plab hududlarida bank kartalaridan va ilovalarning moliyaviy xizmatlaridan qanday foydalanish mumkinligi aholi vakillariga tanishtirilmoqda va moliyaviy savodxonlikka targ'ib qilinmoqda. Bu kabi loyihalar va tadbirlar aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga va mablag'laridan oqilona foydalanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.07.2019 yildagi PQ-4400-son.
2. Vaxabov A.V.Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma.Toshkent-2013.
3. “Moliyaviy savodxonlikni o'qitishning ahamiyati” – Z.Maxtimova. Ilmiy maqola 4-bet.
4. Kobulov K. СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
5. Asror A., Inomjon J. O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 35. – №. 4. – С. 128-138.
6. Markaziy bank “Butunjahon pul haftaligi” (Global Money Week 2024) doirasida “Pullaringizni himoya qiling. Kelajagingizni ta'minlang” mavzusida videoroliklar tanlovini e'lon qiladi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti (finlit.uz).
7. Moliyaviy savodxonlik (hamkorbank.uz)